



ICHKI ISHLAR ORGANLARI TEZKOR BO'LINMALARI TOMONIDAN BEDARAK YO'QOLGAN SHAXSLARNI QIDIRUVINI TASHKIL ETISH

Bektemirov Xondamir Abduxoliq o'g'li

IIV Akademiyasi kursanti

Oripov Temurmaliq Bahtiyor o'g'li

IIV Akademiyasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11062877>

Adolatli qonun ustuvorligini ta'minlash, shaxs, oila, jamiyat va davlatning huquq va manfaatlari muhofazasini kuchaytirish, aholining huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirish, fuqarolarni qonunga bo'ysunish va hurmat ruhida tarbiyalash bu rivojlangan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyat barpo etish eng muhim sharti hisoblanadi. huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyatning muhim belgisi jamiyat hayotida chinakam qonun ustuvorligini ta'minlash har qanday davlat uchun, xususan huquqiy demokratik davlat va adolatli fuqarolik jamiyat barpo etish yo'lidan borayotgan Yangi O'zbekistonimiz uchun ham juda muhimdir. Qonun ustuvorligining mohiyati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining III-bob, 15-16-moddalarida belgilab qo'yilgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaning 15-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarning ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat, uning organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari, fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish ko'radilar»[\[1\]](#) deyilgan[\[2\]](#).

Ushbu qonun tezkor-qidiruv tadbirlarini amalga oshirishda o'tkazish uchun asoslardan biri sifatida "tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshiruvchi organlarga surishtiruv, tergov organlaridan va suddan yashirib yurgan, jinoiy jazodan bo'yin tovlayotgan shaxslar, bedarak yo'qolgan shaxslar va qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda boshqa shaxslar, shuningdek topilgan tanib olinmagan murdalar haqida ayon bo'lib qolgan ma'lumotlar ekanligi belgilab qo'yilgan[\[3\]](#). Binobarin, jinoyat sodir etgan shaxslarni qidirib topishning jinoiy-protsessual asoslari bilan bir qatorda, yuqorida ko'rsatilgan qonunda o'z ifodasini topgan tezkor-qidiruv asoslari ham mavjud[\[4\]](#).

Respublikamizda amal qilayotgan 600 dan ortiq qonun va 16 ta kodeks hayotimizning huquqiy asosini tashkil etadi hamda kuchli huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini shakllantirishga xizmat qiladi[\[5\]](#). Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qidiruvdagi shaxslar bugungi kunda yaqin qarindoshlari, tanishlari yoki boshqa jinoiy aloqalari bilan asosan yuqorida qayd etilgan axborot texnologiya vositalarini qo'llagan holda Internet jahon axborot tarmog'i



yordamida (turli ijtimoiy tarmoqlar yoki dasturiy vositalar) aloqa o'rnatishmoqda, xabarlashmoqda, ma'lumot almashishmoqda. Shu sababdan, qidiruv ishlarini ushbu virtual olamda ham olib borish bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda[\[6\]](#).

Virtual olamda qidiruv ishlarini olib borishda, avvalo, zamonaviy axborot vositalarining xususiyatlari, imkoniyatlari hamda ular to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni:

- telefon raqamlarni;
- mobil telefonning IMEI va IMSI raqamlarni; - shaxsiy kompyuter, planshet va smartfonlarning MAC-manzillari to'g'risidagi ma'lumotlarni bilish, aniqlash hamda qidirib topish lozim bo'ladi. Shundan so'ng Internet jahon axborot tarmog'idagi boshqa ma'lumotlar;
- Internet jahon axborot tarmog'iga kirish login va parollarini; - shaxsning ijtimoiy tarmoqlardagi akkaunti (Facebook, Twitter, LinkedIn, Instagram, VKontakte, Odnoklassniki v.b.) va unga kirish login hamda parollarini; - elektron pochta manzillari, uning login va parollarini;
- elektron to'lovda (masalan, YandexMoney, WebMoney va boshqalar) foydalanayotgan bank kartasi raqamlari va rekvizitlarni;
- Internet jahon axborot tarmog'i yordamida rasmiylashtirilgan elektron chipta va hujjatlarni; - geomanzillarni va boshqa zarur ma'lumotlarni qo'lga kiritish bo'yicha tezkor qidiruv ishlarni olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Sh.T.Ergashevning aytishicha, keyingi 5-yil ichki ishlar organlari uchun ham tub o'zgarishlar, yangilanishlar davri bo'ldi. Xususan, ichki ishlar organlari tomonidan jinoyatchilikka qarshi kurash va jinoyatlarni barvaqt oldini olish, ularni issiq izidan fosh etish hamda jinoyat sodir etib qidiruvda bo'lgan shaxslarni qo'lga olish, bedarak yo'qolgan shaxslarni qidirib topish, noaniq murdalarning shaxsini aniqlash borasida olib borilayotgan ishlar yanada yaxshilandi, faoliyatning samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilab olindi[\[7\]](#)

Shaxslarning bedarak yo'qolishini oldini olish bo'yicha profilaktik chora-tadbirlar deganda-turli xil sabablarga ko'ra to'satdan shaxslarning g'oyib bo'lib qolishining sabablari va shart-sharoitlarini aniqlab, ularni bartaraf etish yuzasidan qidiruv organlari tomonidan belgilangan qidiruv tadbirlarini o'tkazish, profilaktik choralarni qo'llash, tegishli hisob hujjatlarini yuritish, shuningdek, yo'qolib qolishga moyil shaxslar ro'yxatini shakllantirish hamda nazorat qilish bo'yicha mas'ul xodimlarga ko'rsatmalar berish, yo'qolib qolishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish va ularni ogohlantirish,



ommaviy axborot vositalari orqali profilaktik mazmundagi e'lonlar berishga qaratilgan kompleks faoliyatga aytiladi[8].

Shaxslarning bedarak yo'qolishini oldini olish bo'yicha hamkorlik quyidagicha:

Fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlari bilan hamkorlik: mahallalar kesimida bedarak yo'qolishga, uyidan chiqib ketishga, maktab-internatidan qochib ketishga moyil shaxslar bilan profilaktik suhbatlar qilish orqali;

Ta'lim muassasalari bilan hamkorlik: maktab-internatlari yoki o'rta maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi axloqi o'g'ir, oilasida muammosi bor, qochib ketishga moyil o'quvchilar bilan ota-onasi ishtirokidagi psixologik suhbatlar o'tkazish orqali;

Bolalar uyi va Qariyalar uylari bilan hamkorlik: bolalar uyi tarbiyalanuvchilari orasidagi yoki qariyalar uyidagi qochib ketishga moyil bo'lgan shaxslar bilan psixolog ishtirokidagi profilaktik suhbatlar o'tkazish orqali;

Ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik: jamoat joylari, odamlar gavjum bo'ladigan boshqa joylar, bozorlar, istirohat bog'lari va xiyobon, muzeylardagi aholiga yonidagi yosh farzandlariga e'tiborli bo'lishlari va ularni yolg'iz qoldirmasligi bo'yicha profilaktik tavsiyalarni berish va radio eshittirishlar qilish orqali;

Tibbiyot muassasalari bilan hamkorlik: tibbiyot muassasalarida davolanayotgan shaxslar orasida qochib ketishgamoyil shaxslarni ajratib, alohida nazoratga olgan holda ular bilan profilaktik suhbatlar o'tkazish orqali tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. – Т.: 2022. //хттпс://lex.uz/ru/досс/20596.
2. Маликов М. А. Жиноят процессида тезкор-қидирув фаолияти натижаларидан фойдаланиш //проспестс оф девелопмент оф ссиенсе анд эдусатион. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 69-74..
3. Салаев А.А., Маликов М.А. Сравнение понятий оперативного внедрения как орм республики узбекистан с другими странами //образование наука и инновационные идеи в мире. – 2024. – Т. 43. – №. 4. – С. 142-145.
4. Ҳамдамов А., Маликов М. Тергов ва суддан яшириниб юрган шахсларни қидирувини меъёрий-ҳуқуқий таъминлаш ҳамда тезкор ходимларни жамоатчилик вакиллари билан ўзаро ҳамкорлигининг



хусусиятлари //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук.
– 2023. – Т. 3. – №. 4. – С. 67-73.

5. Лех.уз “Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги маълумотларининг
миллий базаси” излов тизими маълумотлари бўйича

6. Саидов Ж. Р. Қидирувдаги Шахсларни Ушлаш Тактикаси
Такомиллаштириш Масалалалари //Девелопмент оф педагогисал
технологииес ин модерн ссиенсес. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 140-144.

7. Эргашев Ш.Т. Ички ишлар органларининг тезкор қидирув
бўлинмаларида қидирув ишини ташкил этишда профилактик чора-
тадбирларнинг аҳамияти //бошқарув ва этика қоидалари онлайн илмий
журнали. – 2022. – С. 17-21.

8. Zokirjon ogli S.A., Abduxoshim ogli S.S. Shaxslarni bedarak yo'qolishining
oldini olish chora tadbirlari //journal of innovations in scientific and
educational research. – 2023. – Т. 6. – №. 5. – С. 939-941.